TARIX

UDK:39 (575.1) DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a87

EPOS VA DIN

ЭПОС И РЕЛИГИЯ

EPIC AND RELIGION

Norbo‘tayev Parda Panjiyevich[1]

[1]**Norbo‘tayev Parda Panjiyevich** – TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanl- Termiz davlat universiteti, Tojik filologiyasi va sharq tillar kafedrasi o‘qituvchisi ar" kafedrasi professori v/b, t.f.d

Annotatsiya

Mazkur maqolada «Alpomish» va «Go‘ro‘g‘li» dostonlarida, ot va tuya kultiga sig‘inish, farzandga ism qo‘yish va qahramonning g‘ayrioddiy tug‘ilishi kabi odatlar totemistik, shomonlik va magik tasavvurlar ekanligi, O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar ichida musulmonchilikni tarqalishi natijasida islomiy qarashlarning dostonlardagi talqini yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Janubiy O‘zbekiston xalq baxshilari dostonlarida tasvirlangan oilaviy-maishiy marosimlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni etnologik tadqiq etish orqali dostonlarning etnografik manba ekanligi ilmiy asoslangan.

Аннотация

В данной статье освещен культ коней и верблюдов, наречение детей, необычное рождение героя являются тотемистическими, шаманскими и магическими воображениями в эпосах «Алпамыш» и «Гуругли», в результате распространения ислама среди тюркских народов, проживающих в Средней Азии, освещается интерпретация исламских воззрений в эпосах. В статье также научно обосновывается тот факт, что эпосы являются этнографическим источником путем этнологического изучения сведений, связанных с семейными обрядами, описанными в эпосах фольклора Южного Узбекистана.

Abstract

This article highlights the interpretation of the cult of horses and camels, the naming of children, the unusual birth of the hero are totemistic, shamanic and magical images in the epics "Alpamysh" and "Gurugli", as a result of the spread of Islam among the Turkic peoples living in Central Asia, the interpretation of Islamic views in the epics. The article also scientifically substantiates the fact that epics are an ethnographic source through the ethnological study of information related to family rituals described in the epics of folklore of Southern Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: *Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Tohir va Zuhra, Manas, Qoplon botir, Shora botir, Sain botir, Ashina, Usun, Oq qo‘yunli, Qora qo‘yunli etnologiya, etnografiya, folklor, doston, xalq turmush tarzi, xalq og‘zaki ijodiyoti, qozoq, boshqird, mo‘g‘ul, totemistik.*

Ключевые слова: *Алпомыш, Гёроглы, Тахир и Зухра, Манас, Тигр Батыр, Шора Батыр, Саин Батыр, Ашина, Усунь, Белые Бараны, Черные Бараны, этнология, этнография, фольклор, былины, народный быт, казахский, башкирский, монгольский, тотемистический.*

Key words: *Alpomish, Gorogly, Tahir and Zuhra, Manas, Tiger Batyr, Shora Batyr, Sain Batyr, Ashina, Usun, White sheep, Black sheep, ethnology, ethnography, folklore, epics, folk lifestyle, kazakh, bashkir, mongolian, totemistic.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-sonli «Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 noyabrdagi 222-sonli “2010–2020 yillarda nomoddiy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrab-avaylash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2011-yil 23-maydagi 47-sonli “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2018-yil 22-noyabrda “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 946-sonli Qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

TARIX

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalqlarning etnografik qiyofasi, madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi, an'analari, diniy, axloqiy-etik, badiiy-estetik qarashlari va poetik tafakkur (folklor)ida juda ko'plab o'xshashliklar mavjudligini aniqlagan E. Taylor [1] bunday umumiy jihatlarning kelib chiqishini insoniyatning o'ziga xos tabiati, uning ruhiyati va tafakkurining mushtarakligi hamda bashariyat madaniyati taraqqiyoti bosib o'tgan yo'lning bir xilligi bilan bog'lab izohlaydi. Bu – turli xalqlar folkloridagi mushtarak syujet elementlari va etnografik motivlarning mavjudligini bir xalq og'zaki ijodiyotida yaratilgan epik syujetlarning boshqa xalqlar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan holat, deb baholagan «migratsion maktab» ta'limotiga qaraganda ancha ilg'or va yangi nazariya edi. Chunki E.Taylorning «qiyosiy-etnografik metod»i etnografiya taraqqiyotida tarixiy-folklor jarayon dinamikasining roli va o'rni muhim ahamiyat kasb etadi, degan yangi qarashni o'zida mujassamlashtirgan edi.

E.Taylor "evolyusionistik nazariya" yoki «qiyosiy-etnografik metod» tamoyillari asosida insoniyatni etnofolklor madaniyatining ibtidoiy davrdan sivilizatsiyagacha bo'lgan rivojlanish bosqichini o'taganligi, ayrim xalqlar madaniyati va turmush tarzidagi farqli jihatlar ularning irqiy mansubligiga emas, balki erishilgan taraqqiyot darajasining bir xilda emasligi bilan bog'liqligi, har bir etnosning madaniy boyliklari bevosita o'sha xalqning o'zi tomonidan yaratilishi, ajdodlaridan meros qilib olinishi yoki yonma-yon, qo'shni bo'lib yashovchi millatlarning madaniy qadriyatlaridan o'zlashtirilishi mumkin degan ilmiy xulosalarga kelgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Dostonlardagi eng qadimiy e'tiqodlar xususida so'z ketar ekan, hozirgi turkiy xalqlarning ajdodlari hisoblangan qadimgi urug' va qavmlarning tasavvuri bilan qiyosiy tahlil etish lozim[2]. Ana shu e'tiqod tufayli qavm a'zolari o'z totemlariga qarab urug'-aymoqlarga bo'linganlar. Shunga muvofiq qavm va urug' nomlari totem sifatida qabul qilingan hayvon nomi bilan atala boshlangan. Masalan, qozoq, boshqird, mo'g'ul xalqlarida totemistik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan «bo'ri», «bo'rinayman» kabi urug'lar uchraydi[3]. Shuningdek, Ashina va usun kabi qavmlar ham bo'riga totem sifatida topinuvchi urug' vakillari hisoblanadi. Masalan, turkiy qavmlarining urug'-qavm nomlari orasida oq va qora qo'y bilan bog'liq atamalar ham uchraydi[4]. Masalan, «Oq qo'yunli» va «Qora qo'yunli» deb nomlangan turkiy urug'lar XIV-XV asrlarda juda mashhur bo'lishgan. XII asrda Amudaryodan o'tib Eronning shimoliy rayonlarida o'rnashgan turkman urug'larining bayrog'ida qo'y kallasining tasviri tushirilganligini etnograf G.P.Karpov qayd etib o'tgan edi. Shuningdek, oq qo'yli, qora qo'yli urug'lari qozoqlarda ham mavjud bo'lgan. Turkiy qavmlar tarkibidagi qora qo'yli va oq quyli urug'larning nomi «O'g'uznoma» dostonida ham tasvirlangan oq va qora quylarni hoqon taxti yonidagi yog'ochlarga bog'lash motiviga bog'lanadi[5]. Demak, bu kabi etnik atamalar mohiyatida totem va unga e'tiqod tushunchalari mujassamlashgan.

Xalq dostonlarida qahramonga ism qo'yish bilan bog'liq diniy motivlarni ham uchratishimiz mumkin[6]. Qashqadaryolik Abdulla shoirning «Alpomish» dostonida (dostonining boshqa variantlar singari) ham bu holat islom dini ta'limoti doirasida saqlangan bo'lib, bolalar dunyoga kelgach amalga oshirilgan. Bekmurod Jo'raboy o'g'li variantida qahramon tug'ilmasdan uning otasining tushida Xizir qanday ism qo'yish kerakligini aytsa, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Berdi baxshi, Egamberdi baxshi, variantlarida bolalar tug'ilgach, Ali yoki Xizir qalandar-devona qiyofasida kelib ularga ism qo'yadi[7].

O.Madayevning ta'kidlashicha, Shohimardon piri Boybo'ri va Boysarining farzand tilab qilgan iltijolarini Ollohga yetkazadi. Keyinchalik Hakimbek, Qaldirg'och, Barchinoyning ismlarini ham u qo'yadi. Bu lavhalarni hisobga olgan holda hech ikkilanmay «Alpomish» dostonining turkiy xalqlar orasida paydo bo'lgan dastlabki nusxasidagi Dadam Qo'rqut o'zbek dostonida Shohimardon piri bilan almashtirilgan[8].

"Qo'rqut ota" eposida keltirilishicha, o'g'uz – turkmanlarda o'g'il bola o'zining jasur, topqirligini ko'rsatmaguncha unga ism bermaganlar. "U davrlarda boshlarni kesib, qon to'kmaguncha o'smirga ism berishmagan" [9].

Gap o'z xalqini dushmandan himoyalash, va shuningdek ulkan hayvonlar: ho'kiz, sherlarni yiqita olish haqida bormoqda. Darse – xonning o'g'li Buqa – jon ho'kizni so'ygandan keyin ism oladi. Bu yerda ism o'g'uz – turkman so'zi buqa – ho'kiz so'zidan olingan. Turkman etnografi akademik A.Jikiyev bu an'anani initsiatsiya marosimi bilan bog'laydi. Hanuzgacha turkmanlar yangi

tug‘ilgan go‘dakning ota-onasini unga berilgan ism bilan qutlay turib, “Ismiga munosib bo‘lsin” deyishadi. Zero, bu tilak o‘g‘ilga ham, qizga ham taalluqli. Turkmanlarda farzandni go‘zal, jarangdor ism bilan nomlash ota- onaning muhim burchi hisoblanadi.

Aslida, etnologik tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, kishilarga ism qo‘yish tarixi juda qadimgi davrlar e’tiqodlari, totemizm, shomonlik, afsungarlik ajdodlar e’tiqodi kabi qadimiy diniy e’tiqod va toponimlar bilan bog‘liq[10]. Bu odatning O‘rta Osiyo va Sibirda yashovchi turkiy tilli xalqlarda amal qilganligi to‘g‘risida ham ma’lumotlar mavjud. V.V.Radlovning fikricha, tog‘li oltoyliklarda bola tug‘ilgandan keyin oila boshlig‘i unga ism qo‘ygan[11]. Qozoqlarning qadimgi odati bo‘yicha, bola tug‘ilganidan so‘ng uch kun o‘tgach chaqaloq tantanali ravishda beshikka belanayotgan paytda ism qo‘yilgan. Bunda o‘sha yerda yashagan ovuldagi odamlar yig‘ilib, qo‘y so‘yilgan, odatda mulla namoz o‘qigan. Ismni eng hurmatga ega bo‘lgan mulla (qadimda shomonlar) qo‘ygan[12]. Masalan, Qahhor baxshi Qodirovning «Beva Barchin» dostonida bolaga ismni oiladagi erkak kishi qo‘yish odati tilga olinadi: «Chaqaloqning beshik to‘yini o‘tkazish, bolaga ot qo‘yish kelgusi dushanba kuniga qoldiriladi. Shunda onasi Xumoroy Barchinoyga qarab: «Bolam, chaqaloqqa nom qo‘yish zaifaning ishi emas, erkagi bor uyda bolaga nom qo‘yish mardlarning ishidir. Menimcha, bolangga ismni qaynotang Boybo‘rishoh qo‘ygani ma’qul», - dedi... [13]

Bolaga ism qo‘yish va xatna qilishda «xo‘ja» (mulla yoki boshqa «hurmatli» kishi) muhim o‘rin tutib, ular bolaga baxt olib keladi deb tushunishgan[14]. Qadimgi Xivada ham bu odat o‘tkazilgan, ya’ni vazirning o‘g‘liga xonning o‘zi, mullaning o‘g‘liga qozi, mufti, oddiy aholi vakillari farzandlariga o‘sha joy oqsoqollari ism qo‘yishgan[15]. Bu holning dostonda keng o‘rin egallashi, turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining turmush tarzida, musulmon dini ta’sirida siqib chiqarilgan, shomonlik dinining qadimgi magik marosimlari poetik darajada aks etishidadir.

Abulg‘ozining «Shajarai tarokima» (1660 yil) asarida yarim afsonaviy holatda Tumanxonga ism qo‘yish to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. Asarda O‘g‘uz qavmining oqsoqoli, shomon va baxshisi Qo‘rqut ota yig‘ilgan odamlarning iltimosiga ko‘ra, bolaga baxt keltirish ma’nosida – «Tuman» deb ism qo‘yadi. Qo‘rqut odamlarga bu ismning ma’nosini tushuntirib, «Tuman» bolaga baxtli kelajak ato etadi, ya’ni u balog‘atga yetganda o‘z otasining taxtiga o‘tiradi, [16] -deb ta’kidlaydi.

Bu qadimgi afsonaning tarixi Rashididdinning «O‘g‘uz tarixi va turklarning dunyo ustidan hukmronligi» (XIV asrning boshlari) deb nomlangan asarida ham keltirilgan[17]. Dostonda esa, Alpomishga ism qo‘yilishi va uning bahodirlik yo‘li belgilanishi musulmon avliyolari nomi bilan bog‘liq holda tasvirlangan bo‘lib, bu holat hukmron g‘oya ta’sirida qadimiy motivlarning keyinchalik o‘zgara borganligini ko‘rsatadi. Bu fikrni «Alpomish» dostoni materiallarining o‘zi ham tasdiqlaydi. Murod Otaboy o‘g‘li, Umir shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarida ism qo‘yishda Alining aralashuvi tilga olinmaydi[18]. Demak, eng avval, ismni erkak kishi yoki urug‘ boshlig‘i, ko‘pni ko‘rgan oqsoqol qo‘ygan.

«Alpomish» dostonida qahramonning tug‘ilishi, befarzandlik hamda g‘ayrioddiy homiladorlik kabi motivlar dostonning qadimiy elementlaridan bo‘lib, barcha xalqlarning epik asarlarida uchraydi[19].

Ibtidoiy odam tasavvurida homiladorlik ayol tanasiga totem (muqaddas sanalgan narsa) ning kirishidan deb hisoblanadi[20]. Demak, g‘ayrioddiy homiladorlik va uning paydo bo‘lishi ikki xil ibtidoiy tushuncha-biri magik afsun, ikkinchisi esa diniy e’tiqod bilan izohlangan. Agar ayol uzoq muddat bola tug‘masa, «odatda biror ruhning ta’siridan»[21], ba’zan esa «mulla yoki sehrgarning magik afsunidan» deb bilganlar[22].

V.M.Jirmunskiyning ko‘rsatishicha, bu motivning o‘zining nisbatan arxaik shakli onalik urug‘ davriga borib taqaladigan «partenogenez» haqidagi ibtidoiy tushuncha bilan bog‘lanadi[23]. Bunga ko‘ra, qahramonning onasi sehrli olmani yegandan yoki ilohiy suvdan ichganidan keyingina tug‘iladi. Gul hidi, quyosh nuri, yomg‘ir, shamol ham shunday vazifani o‘tashi mumkin. Dostonning Bo‘riboy Ahmedov variantida Boybo‘ri va Boysarining xotinlari qalandar bergan sehrli olmani yeganlaridan keyin homilador bo‘lganliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Aytish kerakki, sirli qalandar obrazining ildizi mifologik ritualga kirib boradigan «qirq chilton» lar bilan aloqadordir[24]. Qadimiy tushunga ko‘ra, «chiltonlar g‘ayritabiiy kuchga ega oddiy odam, ba’zan esa qalandar qiyofasida keladilar. Shuning uchun ham ulardan shubhalanmaydilar»[25].

TARIX

Sehrli olma bergan qalandar afsonaviy chiltonlardan birining shakli o‘zgargan poetik namunasidir. Bu bilan esa, «Alpomish» dostonida qahramonning ajoyib holatda tug‘ilishi motivi diniy e’tiqod asosida ko‘rinish beradi. Bu Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Egamberdi baxshi, Abdulla shoir variantlarida qahramonlarning ota-onalari Shohimardon ravzasiga borib sig‘inishlari tarzida ifodalanishi diniy e’tiqodning kuchli ta’siri natijasida dostonda keyinroq kirib qolgan[26]. Bu fikrni dostonda islom dini tarqalmasdan ilgarigi qadimiy tushunchalarni ifodalovchi elementlarning mavjudligi ham tasdiqlaydi.

«Alpomish» dostonidan tashqari qahramonning ajoyib holatda tug‘ilishini O‘rta Osiyoning boshqa xalqlari dostonlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, “Tohir va Zuhra”, qirg‘izlarning «Manas», qozoqlarning «Qoplon botir», «Shora botir», «Sain botir» kabi dostonlarida ham ayni motiv mavjud[27].

“Go‘ro‘g‘li” dostonida «qahramonning tug‘ilishi» motivi hamda nomlanishi dostonning mavjud versiyalari asosida tadqiq etildi. Dostonning barcha versiyalarida qahramon go‘rda tug‘iladi. Lekin homila asosiga ular ikki guruhga ajraladi.

I. Homila tabiiy, qahramonning tug‘ilishi g‘ayritabiiy; (Qo‘rg‘on versiyasi (Po‘lkan shoir varianti) [28], Egamberdi Ollobergan o‘g‘li varianti[29], Rahmatulla shoir varianti[30], Haydar ota Boychayev varianti[31], Amin Malik o‘g‘li versiyasi[32], Xorazm versiyasi[33], turkman «Go‘ro‘g‘li»si, Moskva[34], Ashgabat[35] nashrlari, qozoq «Korug‘li»si[36].

II. Homila ham, qahramonning tug‘ilishi ham g‘ayritabiiy (Fozil shoir versiyasi, Laqay versiyasi, Tosh shoir versiyasi, Namangan versiyasi) [37].

«Qo‘rg‘on» varianti va turkman versiyalari o‘rtasidagi asosiy farq, Qo‘rg‘on versiyasida voqealar tafsilotining kengligi, qo‘shimcha obraz va motivlarning mavjudligida, qahramon otasining Ravshan deb atalishida ko‘rinadi. Xorazm versiyasi, ozarboyjon va turkman dostonlarida qahramon nomlaridan biri Ravshan. Qahramonga Ravshan nomining berilishi dostonning turkman versiyasida Xizr qahramonga qorong‘i yurt (go‘r)dan, yorug‘lik yurt (yer yuzi)ga chiqqanligi uchun «Ravshan», deb nom beradi[38]. «Ravshan» so‘zining lug‘aviy ma’nosi oydinlik, yorug‘lik, yorug‘ nur demakdir. Dostondagi izoh davomida eranlar Hizrga: «go‘rdan chiqdi, deysanmi, unda oti Go‘ro‘g‘li bo‘lsin»[39], deyilishi zamirida ham dastlabki izohga mos ma’noni anglash mumkin.

Qodir baxshi kuylagan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni Po‘lkan shoir variantidan farq qilgan holda epik qahramonning dunyoga kelishi qadimiy asoslarga ega. U otasiz, suv betida kelayotgan ko‘pikdan ona qornida paydo bo‘ladi. Ya’ni suv kulti bilan bog‘liq. Epik ot va epik qahramonning tug‘ilishidayoq ilohiylik, g‘ayritabiiylik namoyon bo‘ladi. Voqealarning rivoji, konfliktda qadimiy asarlar yetakchi o‘rin tutadi[40].

«Go‘ro‘g‘li» dostonining tub ildizlari, undagi arxaik qatlamlarni yoritishda qahramon nomining ma’no ko‘lami, izohlari muhim rol o‘ynaydi. H.T.Zarifov «... turkiy go‘r-ko‘r so‘zining botir, mard, bahodir ma’nolari arxaiklashib qahramonning g‘ayritabiiy tug‘ilishi motivi formalariga ham o‘zgarishlar kiritilgan va qahramon nomi «go‘rda tug‘ilgan o‘g‘il» ma’nosini kasb etgan[41], degan gipotezani o‘rtaga tashlagan. Bu fikrni A.Ishayev batafsilroq tarzda qo‘llab-quvvatlaydi[42]. T.Haydarov qahramonning Ero‘g‘li atalishini Erlik nomi bilan bog‘lab talqin etadi[43]. O.Sulaymonov esa: «... qadim Misrda Gor-kl (Gor-quyosh) – Quyosh o‘g‘il, Quyosh farzandi, «chiqayotgan quyosh» haqidagi mifologik obraz muzaffar bahodir sifatida etrusklarning Gerakli, greklarning Gerkules va turkiy xalqlarning Go‘ro‘g‘li obrazlarida qad tikladi. Qadim misrliklarda yana bir Quyosh-ota, «halok bo‘layotgan quyosh», «botayotgan quyosh» personaji bor, ular birgalikda quyosh-turkum miflarini tashkil etardi»[44], degan fikrni aytib o‘tgan. Mirali Seyidov doston syujeti, yetakchi motiv va obrazlarining tarixini tadqiq etish asosida «Ko‘ro‘g‘li o‘zini ota-bobosiga ko‘ra «Go‘r o‘g‘li-o‘t o‘g‘li», shuning uchun ham u Ravshan, ya’ni «ishq» /yorug‘lik/ atalgan», deb yozadi[45]. Ayni paytda, olim Go‘ro‘g‘lini tog‘ tangrisi va quyosh shu’lasining insonlashgan obrazi sifatida ham talqin etadi[46].

G‘ayritabiiy tug‘ilish motivi “Tohir va Zuhra” dostonining Islom shoir Nazar o‘g‘lidan yozib olingan variantida ham tasvirlangan, unga ko‘ra, “Bir kun podsho bilan vazir o‘zaro gurunglashib, maslahat etishdilar. Podsho vaziriga aytdi:

-Ey, vazir, bizning ikkimizga ham o‘g‘il-qiz yo‘q, parzandsiz odamga bu viloyat haromdir. Kel, ikkimiz boshimizni, oyog‘imizni olib bir yoqqa ketaylik, bu vatanni tark etaylik…[47].

Epik qahramonlarning dunyoga kelishi motivining muqaddas joylar va avliyolar karomati bilan bog‘liq holda badiiy talqin qilinishi “Tohir va Zuhra” dostonining xalq kitobi yoki qissa tarzida ommalashgan namunalarida, ba’zi bir toshbosma nashrlarida ham uchraydi. M. Jo‘rayev fikricha, bu motivning badiiy talqini ota-bobolar kulti hamda ajdodlar ruhiga sig‘inish an’analariga aloqadordir[48].

XULOSA

«Alpomish» va «Go‘ro‘g‘li» dostonlarida ot va tuya kultiga sig‘inish, farzandga ism qo‘yish va qahramonning g‘ayrioddiy tug‘ilishi kabi odatlar totemistik, shomonlik va magik tasavvurlar hisoblanib, O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar ichida musulmonchilikni tarqalishi natijasida islomiy qarashlar xalq dostonlarida o‘z ifodasini topgan.

Janubiy O‘zbekiston xalq baxshilari dostonlarida tasvirlangan oilaviy-maishiy marosimlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni etnologik tadqiq etish dostonlarining muhim etnografik manba ekanligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Taylor E. Pervobitnaya kultura. – M.: Nauka,1989. – 611 s
2. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. – T.: 1981. – B. 111.
3. Jo‘rayev M. Ko‘k bo‘ri avlodlari // Fan va turmush. - T.: 1983, № 3. – B. 12.
4. Tursunov YE.D. Genezis kazaxskiy bitovoy skazki. – Alma-Ata: «Nauka», 1973. – S. 20.
5. Jo‘rayev M. Sehrli raqamlar siri… – B. 53.
6. Veselovskiy F.N. Istoricheskaya poetika. – M., 1940; Potanin G. Kazak – kirgizskiye i altayskiye predaniya. - S. 47-48;
7. Mirzaev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 32-61.
8. Madayev O. «Alpomish» bilan suhbat. – T.: «Ma’naviyat», 1999. – B. 16.
9. Kniga moyego deda Korkuta. Oguzskiy geroicheskiy epos. –M. –L., Izdatelstvo AN SSSR. 1962. – S. 33.
10. Ashirov A. Farg‘ona vodiysi aholisini turmush tarzida diniy e’tiqodlar… – B. 93.
11. Radloff W. Aus sibirien, Bd I, Leipzig, 1884, S. 314; Verbitskiy V.I. Altayskiye inorodsi, -S. 85.
12. «Obichai kirgiz semipalatinskoy oblasti…» («Russkiy vestnik», T. 137, 1878, -S. 58-59.)
13. Murodov M., Ergashev A. «Alpomishnoma» T. II... – B. 114.
14. Divayev A. K voprosu o narechenii imeni u kirgizov // «Turkestanskiye vedomosti», 1916, № 206.
15. Samoylovich A.K. K voprosu o narechenii imeni u tyurkskix narodov // «Jivaya starina», 1911. II. - S. 299.
16. Abu-l-Gazi. Rodoslovnaya turkmen, - S. 58.
17. Orhan Saik Go‘kuau, Dede Korkut, S/ XIX,
18. Mirzaev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 32-61.
19. Auezov M., Sobolev L. Kazaxskiy epos i folklor. – S. 172-173.
20. Kosven M.O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar… – S. 159.
21. Andreyev M.S. Tadjiki dolini Xuf. – Stalinobod, 1953. – S. 45.
22. O‘sha asar. – S. 45.
23. Jirmunskiy V.M. Skazaniye ob Alpamishe bogatirskaya skazka… - S. 163.
24. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. - M., 1948. – S. 312.
25. Andreyev M.S. Tadjiki dolini Xuf. – Stalinobod, 1953. – S. 48.
26. Mirzayev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari… – B. 32-61.
27. Jirmunskiy V.M. Skazaniye ob Alpamishe i bogatirskaya skazka… – S. 169.
28. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi / Aytuvchi Muhammad Jomrod o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi: M.Murodov. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1967.
29. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv № 1461.
30. Go‘ro‘g‘li / Aytuvchi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li / Nashrga tayyorlovchi T. Mirzayev. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 409-428.
31. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv №1170.
32. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv №1515.
33. Go‘ro‘g‘li. Xorazm dostonlari / Nashrga tayyorlovchilar: S.Ro‘zimboyev, X.Ro‘zimboyev, G.Eshjonova. – Urgench: Xorazm, 2004.
34. Ger-ogli. Turkmenskiy geroicheskiy epos. – M.: Glavnaya redaksiya vostochnoy literaturi, 1983.
35. Gorogli. Turkmen gahrimanchilik eposi. – Ashgabat: Turkmenistan, 1990.
36. Koroug‘li (Korog‘li jane onin urpaqtari turali dastandar). – Almati: Jazushi, 1973.
37. Qarang: O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv №257; O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv № 555; O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv №1459; O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv №1085. Papka №79.
38. Ger-ogli. Turkmenskiy geroicheskiy epos. – C.47.
39. Ger-ogli. Turkmenskiy geroicheskiy epos. – C.47.
40. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. I-kitob... – B. 346.
41. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari... – B.132-157.

42. Ishayev A. So‘z mulkiga sayohat // Fan va turmush. – Toshkent, 1970. – №10. – B.25.
43. Haydarov T.M. «Go‘ro‘g‘li» va mifologiya sinkretizmi: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – Toshkent, 1993. – 27 b.
44. Suleymenov O.O., Kajibekov YE.Z. Tyurkologiya: vchera, segodnya, zavtra // Sovetskaya tyurkologiya. – Baku, 1989. –№6. –S.83-106.
45. Cejidov M. Azerbajchan xalginin sojkokunu dushunereken – Baki: Jezichi, 1989. – B.306.
46. Ko‘rsatilgan manba. – B.298.
47. Tohir va Zuhra. Islom shoir Nazar o‘g‘li. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv. №1143. 1-2-betlar.
48. Jo‘rayev M. Mullanafasning “Zuhra-Tohir” dostoni // O‘zbek tili va adabiyoti, 2010. 1-son, 42-43-betlar.